

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'limiy muhitni tashkil etishning o'ziga xosligi

Mashhura Norovna Safarova
Dildora Abduvosiyevna Mirzayeva
Vobkent pedagogika kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda ijodiy qobiliyatning shakllanishida rivojlantiruvchi muhitning o'rni, ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalar va muammoli vaziyatlarning ahamiyatli jihatlari, o'yin faoliyati, faoliyat turlari, mazmuni, mohiyati va maqsadi, bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni, bolalar kreativligini rivojlantiruvchi omillar hamda tizimlashtirilgan tamoyillar, bolaning ijodiy qobiliyati, ongi va tafakkurini rivojlantirishda pedagoglarga qo'yiladigan talablar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, faoliyat, qobiliyat, muvaffaqiyat, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, salohiyat, kompetentlik, tafakkur, kreativlik, faollik, tasavvur, ixtirochilik, yaratuvchanlik

The uniqueness of the organization of the educational environment in the development of creative abilities of children of preschool age

Mashkhura Norovna Safarova
Dildora Abduvosiyevna Mirzayeva
Vobkent Pedagogical College

Abstract: In this article, the role of the developing environment in the formation of creative abilities in children, the important aspects of problematic issues and problematic situations in the organization of creative activity, play activities, types of activities, their content, essence and purpose, their role in the formation of a child's personality, the development of children's creativity general information about the factors and systematized principles, requirements for pedagogues in the development of a child's creative ability, mind and thinking is provided.

Keywords: creative ability, activity, ability, success, knowledge, skill, competence, competence, potential, competence, thinking, creativity, activity, imagination, inventiveness, creativity

Barchamizga ma'lumki, uzliksiz ta'limning ilk bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim bolalarni jamiyat bilan bog'laydigan eng muhim maskanlardan biri sanaladi. Shunday ekan, bolalarni ta'lim-tarbiyaga to'g'ri yo'naltirish, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini topishda, eng asosiysi jamiyatga nafi tegadigan shaxs qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tajribalarda ko'rsatilishicha, bolalarning aynan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim yosh davriga to'g'ri kelishi o'z isbotlangan. Hozirgi zamon standartlarini amaliyotda tadbiiq etish boladan nafaqat yuqori va doimiy izlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning kreativligi o'z tajribalari va ixtirolarini qayta ko'rib chiqishi va yanada yaxshilash, natijani anglash hamda ijodiy foydalana bilish, yangiliklar yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bolaning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanib takomillashib boradi. Har bir bolaning o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga ega ekanligi bilan bog'liq.

Bola o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatning shakllanishida rivojlantiruvchi muhitning o'rni beqiyosdir.

Har qanday soha mutaxassislarida bo'lgani kabi bolalarning ijodiy, kreativ qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun uzoq yillar davomida poydevor qo'yib boriladi va ma'lum faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantiriladi. Bunda bolaning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bolaning ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda alohida e'tibor qaratishi zarur deb bilamiz. Bolalar muammoli vaziyatlarni hal qilar ekan, ularda tafakkur va ijodkorlikning rivojlanishi jarayoni sodir bo'ladi. Muammoli vaziyatlar jarayonida bola mavjud bilimlar va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar, o'xshashliklar, faktlarga duch keladi. Buning natijasida bola fikrlash, mustaqil o'rganish, yaratish, ixtirolarga, kreativlikka nisbatan ehtiyoj sezadi. Kreativlik ijodiy, intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, bolaning hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishdagi betakror g'oyalarning tug'ilishi, muammoni hal etish va farazlarni shakllantirishda tafakkurning stereotip usullaridan voz kechish qobiliyati bo'lib ta'lim jarayoni samaradorligi ham ko'p jihatdan uning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ham ularga xos bo'lgan ijodiy yoki kreativ xususiyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy va kreativ qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo'lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko'nikmasining taraqqiyoti bolaga ta'lim jarayonidagi turli vaziyatlarga

muvaffaqiyatli moslashish, o'zgargan holatlarni anglay olish hamda o'zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo'naltira olish imkonini beradi.

Tadqiqotlarga qaraganda, bolalar kreativligining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- ijodkor kishilar bilan muloqot ko'lamining kengligi;
- taqlid uchun namuna bo'la oladigan kattalar olamining mavjudligi;
- ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik uslubga ega ekanligi;
- bolaga hissiy jihatdan o'zini namoyon etish uchun imkoniyat berilishi;
- kattalarning faol va arboblarga xos maqomi;
- bolalarni mustaqil mehnatga erta jalb qilinishi;
- turli to'garaklarga jalb qilish orqali ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
- o'z tajribasidagi yangi ma'lumotlarni bilishdan quvonishi;
- bolalarning tadqiqotchilik ishiga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- bolalar faoliyatidagi yutuqlarni o'z vaqtida rag'batlantirish;
- intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha tegishli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish va boshqalar.

Bolalardagi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi, taraqqiy etishi va uni rag'batlantirish uchun pedagog-tarbiyachi, psixolog va ota-onalardan tizimlashtirilgan tamoyillariga rioya qilishlari tavsiya etiladi:

- bolalarning har qanday ijodiy faolligi ko'rinishlariga e'tiborli bo'lishi;
- har bir tarbiyalanuvchiga nisbatan ichki munosabatni o'zgartirishi;
- pedagog-tarbiyachi bolalardagi ijodkorlikni nafaqat o'yin yoki o'quv faoliyatida, balki har qanday faoliyat jarayonida ham ko'ra olishni o'rganishi;
- tarbiyalanuvchilarda yetarli darajada yuqori o'ziga-o'zi baho berishni shakllantirishga harakat qilishi;
- ota-ona, psixolog va pedagoglar ham o'zining kreativligini rivojlantirishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar va rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun shunday inklyuziv muhit yaratilishi kerakki, bola o'zini ta'limga jalb qilinganini his etishi lozim. Barcha yosh guruhlarida, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'yin orqali berish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali usuli sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi ob'ektlarni kuzatish va manipulyatsiyalash orqali sodir bo'lsa, ko'proq kattalar bolalarining rivojlanishi ularning his-tuyg'ularini o'zlari uchun mavjud vositalar orqali etkazish urinishlari orqali amalga oshiriladi. Oddiy qilib aytganda, kuzatish bosqichi asta-sekin harakatga keladi, shuning uchun rivojlanish usullari bolani harakatga undaydi. Buning eng yaxshi tomoni shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan bolalar o'yinlari uslubiy jihatdan taklif qilinadi. O'yin mazmuniga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- sport o'yinlari
- qoidali o'yinlar
- syujetli-rolli o'yinlarga bo'linadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining rivojlanish jarayoni barcha yosh guruhlardagi tarbiyachilarning topshiriqlarga va ularni amalga oshirishga emotsional munosabati bilan xarakterlanadi. Bunda tarbiyachi rahbarligining umumiy ijodiy yo'nalishi, uning bolalar izlanishlariga xayrixohlik munosabati katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bolaning ijodiy qobiliyati, ongi va tafakkurini rivojlantirishda tarbiyachi-pedagoglarning mahorati, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanganligi va uni ta'limiy jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, kompyuterli ta'lim, yondashuvning yangi usullari va muntazam izlanish, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhim sanaladi. Bugungi kunning zamonaviy ta'limi ham maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy fikrlashga o'rgatishda interfaol metodlardan o'rinli foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etgan holda olib borish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlashni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, bolalarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, ularni har tomonlama mukammal kamol topishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolaning ijodiy tafakkurini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.A. Migranova, Sh.X. Poziiova Kasbiy pedagogik f'aoiiyatga kirish / O'quv qo'llamna. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 bet

4. Sh.A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.- 288 bet.
5. N.M. Qayumova "Maktabgacha pedagogika", "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y-184 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.
8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. -434 bet.
11. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.
12. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалык журнал 5/1 2022 y.101-105 bet
13. S.M. Raxmonova PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. 288-293 bet
14. S.M. Raxmonova PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>
15. S.M.Raxmonova (2023). ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 92–94 с. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/19974>

16. Mamedova, M. M. (2021). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. Экономика и социум, (12-1 (91)), 337-340.

17. Soliyev, I., & Sobirova, N. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3 Part 2), 22-25.